

ZAMONAVIY ADABIYOTDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR OBRAZI

Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi – o‘qituvchi,
Ingliz tili integrallashgan kursi 3 kafedrası,
Ingliz tili 3- fakulteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
zubaydaanarkulova@gmail.com

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotshunosligida ham o‘chmas iz qoldirgan ulamolardan biridir. U juda katta iste’dod egasi bo‘lib, nafaqat buyuk shoh balki mashhur shoir, adib, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Ushbu maqolada Bobur obrazining O‘zbek va yevropa adabiyotidagi badiiy talqini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Ulamo, she‘r, shahzoda, taxt, sulola, imperiya, qonun, juz‘ya, xok, risola, tariqat, ruboiy.*

Аннотация: Захириддин Мухаммад Бабур – один из ученых, оставивших неизгладимый след не только в узбекской литературе, но и в мировом литературоведении. Он был обладателем огромного таланта и оставил неизгладимый след в истории не только как великий царь, но и как известный поэт, писатель, мудрый историк, толковый ученый и переводчик. В данной статье рассматривается художественная интерпретация образа Бабур в узбекской и европейской литературе.

Ключевые слова: *Ученый, поэма, князь, престол, династия, империя, закон, джузя, хок, трактат, тарикат, рубай.*

Abstract. Zahiriddin Muhammad Babur is one of the outstanding scholars who left an indelible mark not only in Uzbek literature, but also in world literary criticism. He was the owner of a great talent and left an indelible mark on history not only as a great king, but also as a famous poet, writer, wise historian, intelligent scholar and translator. This article discusses the artistic interpretation of the image of Babur in Uzbek and European literature.

Keywords: *Scholar, poem, prince, throne, dynasty, empire, law, juzya, hawk, treatise, tariqat, rubai.*

Kirish. Hozirda ma’naviy uyg‘onish samarasi o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, or-nomus, qadim ajdodlarimiz o‘tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o‘z qo‘lida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan qaralganda bugungi kunning adabiyoti millatning ma’naviy va intellektual salohiyatini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qilishi naqadar ulkan ekanligini ko‘rsatib turibdi. Komillikni yuzaga keltirishda badiiy adabiyot muhim omildir. Buni yaxshi anglagan yozuvchilar shu yo‘lda samarali ijod qilmoqdalar.

Milliy adabiyotda tarixiy shaxslar haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. Mustaqillik yillarida bunday asarlar saviyasi yanada oshdi. Bu asarlar hozirgi o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlari qilgan ishlaridan faxrlanish, ularning ruhidan madad olish hissini oshirdi. Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» qissasi ana shunday fazilatga egaligi bilan kitobxon qalbini zabt etadi va ma’naviy olamini boyitish orqali o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilashga imkon tug‘diradi. Bu narsa esa o‘z navbatida, jamiyatning insoniylashuviga, demokratiyaning yanada kuchayishiga ko‘mak beradi va asos bo‘ladi. Hech kimga sir emaski xalqi komil bo‘lgan jamiyatdagina adolat va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan qonun hukm suradi. Chunki badiiy asar inson kelajagi uchun xizmat qiladi. “Saodat sohili” qissasidagi Bobur obrazi hech qanday zo‘riqishsiz, o‘quvchini kinotasvirda ko‘rib turganday tabiiy tasvirlanadi. “Bog‘i Nurafshonning yashil qo‘ynida yarqirab turgan oq marmar saroyda Afg‘on, Hind va Bangola o‘lkalarining mutlaq hukmdori–keyinchalik yevropalik tarixchilarning “faromushxotirligi” tufayli tarix sahifalariga “Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasi” degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sahibi Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo arkoni davlat bilan ertalabki mashvarat o‘tkazmoqda”.

Xayriddin Sultonov Bobur asos solgan imperiyaning naqadar buyukligini bayon qilib o‘tirmaydida “Afg‘on, Hind va Bangola o‘lkalarining mutlaq hukmdori” degan tasvirni beradi. Bugungi o‘quvchiga jo‘g‘rofiya ilmidan yaxshi ma’lumki, bu o‘lkalar ulkan davlatlar hisoblanadi. Bu tasvirlardan o‘quvchi ko‘z oldida sarkarda, imperator Bobur Mirzo to‘la gavdalanadi. Bu qissa shoh va shoir Bobur Mirzo umrining so‘nggi kunlari voqeasiga bag‘ishlangan. Asarda voqelik emas, insoniy kechinmalar, ya’ni insonning o‘zi bosib o‘tgan hayot yo‘li, iztiroblari va armonlari tasvirga olinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni egallagach, adolatli qonunlar chiqardi, juz‘ya (g‘ayridinlik solig‘i)ni bekor qilgan, o‘lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yoqishni taqiqlaydi.

1526-yil 21-dekabrda Bobur dushmanlari tomonidan zaharlangan va tasodif tufayli omon qolgan. Shoir 1527-yil 13-oktabrdan, chamasi, 25-26 kun og‘ir yotib qoladi. Bobur 1530-yil 26-dekabrda 47 yoshida Agrada vafot etadi. U Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshon bog‘ining markaziy qismiga dafn etiladi. 1539-yilda esa xoki, uning vasiyatiga muvofiq, Kobulga (Bog‘i Bobur ga) ko‘chiriladi.

Boburiylar sulolasi 1483-1858-yillar mobaynida hukm surgan. Boburning 4 ta o‘g‘li, 3 qizi bo‘lib, shulardan Komron ismli o‘g‘li she‘riy devon tuzgan. (“Head Book” nashriyoti, 2018).

Atigi qirq yetti yil umr ko‘rgan oliyanob inson va ulug‘ shoh avlodlarga o‘zining bebaho adabiy, ilmiy merosini qoldirdi. U yigirma yoshida (1503-yilda) «Xatti Boburiy»ni kashf qildi. Sharq mumtoz adabiyotining turli janrlarida ajoyib she‘rlar yozib, devon tartib berdi. «Boburnoma»day ulkan hajmli tarixiy-badiiy asarini yaratib, turkiy nasr imkoniyatlarining beqiyos ekanligini amalda isbotladi. Adabiyotshunoslik borasida turkiy aruzning xususiyatlariga oid <<Muxtasar>> asarini yozdi. Din asoslariga bag‘ishlangan she‘riy risolasi «Mubayyin»ni yaratdi. Shuningdek, naqshbandiy

tariqatining peshvosi Xoja Ahrori Valiyning «Volidiya» asarini she'riy usulda turkiy tilga tarjima qildi. Bulardan tashqari, Bobur Mirzoning musiqa va harbiy bilimlarga oid risolalar yozgani ham manbalarda bayon etiladi, biroq asarlarning taqdiri hamon noma'lumligicha qolmoqda (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006). U haqida ko'plab asarlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Hindiston inglizlar tomonidan fath etilgandan so'ng, aniqrog'i, XVIII asrdan boshlab Boburning hayoti, faoliyati, ijodi kabi masalalar Ovro'po sharqshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Vitsen, Jon Leyden, U.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverijd xonim, Len Pul, E.Holden, V.H.Moreland va boshqa tadqiqotchilar Boburning hayoti va faoliyatini o'rganish, asarlarini nashr va tarjima qilish bilan shug'ullandilar.

Rus sharqshunoslaridan N.I.Ilminskiy, N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, N.I.Veselovskiy, V.V.Vyatkin, A.Samoylovich, V.Bartold, afg'on olimlaridan Ahmad Ali Kohzod, Abdulhay Habibiy, Gulchin Maoniy, hind olimlaridan Zokir Husayn, Nurul Hasan, S.A.Sharmi, R.P.Tripatxi, P.Saron, Kanunga, turk olimlaridan Fuod Kupruluzoda, Rashid Rahmati, Arad kabilar ham Bobur faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

O'zbeklardan Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiyev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Said Aliyev, B.Valiyxo'jayev, S.Hasanov kabilarning ilmiy tadqiqotlari muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Buyuk olim va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur millatimizning eng yorqin vakillaridan biridir. Bobur haqida ingliz olimi Uilyam Erskinning quyidagi so'zlari uning nechog'lik mukammal inson bo'lganligini tasdiqlaydi: "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi". (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Shams porso tarjimasi. T.: 2015. B.123). XX asrda ham fransuz sharqshunoslari tarafidan Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o'rganish, "Boburnoma"ni tarjima qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Fransuz adiblarining Bobur hayoti, ijodi va "Boburnoma" kitobi haqida umumiy ma'lumot beruvchi maqolalari ko'paydi. 1930-yili fransuz olimi Fernard Grenardning "Bobur. Hind imperiyasining asoschisi" (Baber. Fondateur de l'Empire des Indes. – Paris: 1930, 179 p) nomli risolasi nashr etildi. Kitob 10 bobdan iborat bo'lib, unda Boburning bolalik vaqtidan to umrining so'nggi davriga qadar boshidan kechirgan voqealar tarixiy-badiiy asnodda hikoya qilingan. Grenardning ushbu risolasi "Boburnoma"ga hamohang bo'lib, undagi voqealarga monand keluvchi ilmiy-ommabop ocherklardan, Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni qo'ldan chiqargan paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: "Orzu-umidlari chilparchin bo'lgan Bobur orqaga qaytadi. Bahor fasli edi, u tog'asi yurti (Toshkent-M.X) tomon yo'l oldi. U ezilgan ko'ngliga taskin berish niyatida o'zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi gazalini bitadi:

*Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.*

Bobur turkiy she'riyatda Alisher Navoiydangina keyingi o'rinda edi. U sof va nafosatli turkiyda devon tartib etdi. U nazm yo'lida Mubayyin atalmish asarini yaratib,

shu bilan ko'pchilik tomonidan foydali deb topilgan islomiy huquqshunoslikka doir ta'limotning muallifi bo'ldi, shuningdek, turkiydagi aruz vazni haqida benazir risola yozdi va “Risolayi volidiya”ni tarjima qildi. Uning bequsurlikda yagona hamda jo'n uslubda yozilgan “Vaqoye” yoki “Tarixi turkiy” asari ham bor. U musiqa va o'zga san'atlarni g'oyatda nozik idrok etardi. Shu o'rinda mashhur kishilarning Bobur haqidagi fikrlarini aytib o'tmasdan iloj yo'q:

Tarixi Rashidiydan: “U turli go'zal fazilatlar, maqtovg'a loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelar edi”.

Hasanxo'ja Nisoriy: “Chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi”.

Javoharla'l Neru: “Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan, u san'atni adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko'rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo'lib, ko'p yaxshi fazilatlariga ega bo'lgan”.

Monstyuart Elfinston: “Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlarini va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam Tarixiy tasvir namunasidir”.

Rumer Goden: “Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani 332 yil davomida mahorat hilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi”.

Pirimqul Qodirov: “Bobur Mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga “Boburnoma”ni tugallab taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

*Bu olam aro ajab alamlar ko'r'dum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'r'dum,
Har kim bu “Vaqoyi”ni o'qir bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g'amlar ko'r'dum.*

Amerikalik tadqiqotchi S.M. Berk Bobur haqida qisqa va lo'nda tavsiflarida ulug' siymoning hayot yo'li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Berk o'z asarlarida Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvidagi siyosati haqida shunday yozadi: “Boburshohning fikricha, fotihlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo'llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o'lkalarni o'z saltanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo'lsa-da, u g'olib askarlar mag'lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo'l qoymasdi”. “Boburnoma” haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: “Men bor haqiqatni yozdim”, deydi muallif va haqiqatdan ham u o'zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto'g'ri xatti-harakatlarini keltirib aytib o'tgan.

Xulosa: Qadimdan podshohlar, xonlar bizning mamlakatimiz jannatmakon ekanligi va 4 faslni o'zida mujassamlashtirgan o'lka bo'lganligi sababli uni bosib olishga harakat qilishgan. Afsuski, ulardan ba'zilar buning uddasidan chiqishgan. Mamlakatimizni bosib

olgandan so‘ng uning tarixiy yodgorliklarini yo‘q qilishgan. “Boburnoma” bizning o‘tmishimiz haqida bayon qiluvchi juda katta hujjatlardan biridir. Unda Bobur Mirzo tarixni o‘zgartirmasdan uni yoritgan, ba’zi podsholar singari “Zafarnoma”lar yozdirib o‘zini ko‘klarga ko‘tarish yo‘lidan bormadi. Bobur asarida o‘zi qilgan xatolarni ham to‘liq yoritib bergan, bunga sabab u qilgan xatolarni avlodlari qilishini istamagan. “Boburnoma”ni “O‘g‘itnoma”desak ham xato bo‘lmaydi. Biz yoshlar uning xatolaridan o‘zimizga to‘g‘ri xulosa chiqarib olishimiz va uni hayotimiz uchun dastur-ul amal qilib olishimiz kerak deb o‘ylayman. Shu sababli ham “Boburnoma” hali hamon biz uchun qadrlı bo‘lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boburnoma – Toshkent. 1960
2. Askiya va dozens janrlarining nutqiy ta’sirchanligini oshirishda stilistik vositalarning o‘rni, O‘zbekiston milliy universiteti xabarları, 2023, [1/10/1] ISSN 2181-7324. – 276-279 b.
3. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. T. "O'qituvchi",1976
4. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma.S.:2005
5. Zohidov V. Bobirning faoliyati va ilmiy adabiy merosi haqida. Kitobda:Bobir. Bobirnoma. -T.:1960
6. G'ofurova Sh. "Boburnoma"asaridagi tilga oid ilmiy-badiiy topilmalar.Ilmıy maqola.:2021
7. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3461/4298>